Norboeva Sarvinoz Mengalievna,
Termez davlat universiteti "Pedagogika va ijtimoiy ish" kafedrasi 2-kurs doktoranti. (DSc) 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI ORQALI BO`LAJAK PEDAGOGLARDA TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

UO'K: 3.37.378-378.2
DOI: 10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_12_4

NORBOEVA S.M. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI ORQALI BO`LAJAK PEDAGOGLARDA TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Ushbu maqolada muallif tomonidan Sharq mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyotga qo`shgan hissasi, ma`naviyat, madaniyat va ta'lim-tarbiya sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi haqida ma`lumotlarni o`rganish bugungi kunda ma'naviyat tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassisning vazifasi ekanligi ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan ma' naviy merosni o`sib kelayotgan avlod, butun xalqimiz poydevori ekanligi alohida ajratib ko'rsatilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: ахлоқ, бурч, масъулият, қадрият, madaniyat, etnografiya, vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik.

НОРБОЕВА С.М. РАЗВИТИЕ БАЗОВЫХ ДУХОВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

В данной статье автор приводит сведения о вкладе открытий мыслителей Востока в современную науку и развитие, о несравненном подъеме в областях духовности, культуры и образования, создании научных школ, появлении волны новых талантливых поколений, подчеркивается, что учеба является долгом каждого специалиста, занимающегося сегодня духовным воспитанием, и что духовное наследие, созданное нашими предками на протяжении веков, является фундаментом подрастающего поколения и всего нашего народа.

Ключевые слова и понятия: нравственность, долг, ответственность, ценность, культура, этнография, лояльность к родине, предприимчивость, воля, идеологический иммунитет, доброта, ответственность, толерантность, правовая культура, новаторское мышление, трудолюбие.

NORBOEVA S.M. DEVELOPMENT OF BASIC SPIRITUAL COMPETENCES IN FUTURE EDUCATORS THROUGH THE PEDAGOGICAL APPROACHES OF EASTERN THINKERS

In this article, the author provides information about the contribution of the discoveries of Eastern thinkers to modern science and development, the incomparable rise in the fields of spirituality, culture and education, the creation of scientific schools, and the emergence of a wave of new talented generations. It is highlighted that learning is the duty of every specialist engaged in spiritual education today, and that the spiritual heritage created by our ancestors over the centuries is the foundation of the growing generation and our entire nation.

Key words and concepts: morality, duty, responsibility, value, culture, ethnography, loyalty to the country, entrepreneurship, will, ideological immunity, kindness, responsibility, tolerance, legal culture, innovative thinking, hard work.

Kirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohadagi islohotlar ta'lim tizimida ham yangilanishlar bo`lishini taqozo etmoqda. Ta'lim sohasini isloh qilishga oid davlat siyosati ta'lim tizimi rivojlanishi strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Jumladan, 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi hamda O`zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida ilmiy izlanishlarni olib borishga imkoniyatlar yaratildi. Olib borilgan tadqiqotlar O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[1]gi PQ-3775-sonli qarori, 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma`naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarish chora tadbirlari to`g`risida"[2]gi PQ-3907-son qarori, 2020 yil 23-sentabrda O`zbekiston Respublikasning "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni (O`RQ-637-son, 2020 yil 23-sentabr)[3] ta'limni tubdan isloh qilishda amaliy dastur bo'ldi. Ta'lim sohasidagi mazkur hujjat Respublikada ta`limni rivojlantirish ustuvor soha ekanligi e'tirof etish bilan birga xalq ta'limi sohasining barcha yo'nalishlarida modernizatsiyalash ishlariga katta yo`l ochib berdi. Ta'lim islohotlaridan asosiy maqsad - xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika, texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning ma'naviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"[4].

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018y., 07/18/3775/1313.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son.

[3] O`zbekiston Respublikasning "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni (O`RQ-637-son, 2020 yil 23-sentabr) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektordagi nutqi. - https://president.uz/oz/lists/view/4089

Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning axloqiy va ma'naviy takomili ko`p jihatdan yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga bog'liq.

Mavzuning dolzarbligi. Sharqu G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar etishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"[1].

Sharqning ulug' allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z–o'zidan yuz bermaydi**.** Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart–sharoit, tafakkur maktabi, madaniy–ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak**.**

Xush ma`naviy-axloqiy tarbiyaning rivojlanishi avvalo nimaga bog'liq? O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, ma`naviyat, madaniyat va ta'lim-tarbiya, sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi va voyaga etishi —iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Ildizlari uzoq o`tmishga borib taqaladigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari azaldan umuminsoniy g'ovalar bilan uyg'unlashib ketgan. Bugungi kunda ma'naviyat tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi har bir mutaxassisning vazifasi ajdodlarimiz asrlar mobaynida yaratgan ma' naviy merosni o`sib kelayotgan avlod, butun xalqimiz mulkiga aylantirishdan iborat, toki bu meros xalqimizning farovonligi, yuksak ma'naviyati davlatimiz qudratini oshirishga xizmat qilsin.

Mazkur maqolaning maqsadi. Sharq mutaffakirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanib, bo`lajak pedagoglarning ma`naviy-axloqiy fazilat (kompetensiyalari)larini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tushunchalar xalqda qadimdan ma'naviy-axloqiy fazilatlar sifatida faylasuflar, mutafakkirlar, pedagoglar e'tiborini jalb etib kelgan.

Jumladan, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning pedagogik qarashlarida ma`naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish masalasi ilgari surilgan.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o`rganish va tahlil qilish orqali bo`lajak pedagoglar ma`naviy kompetensiyasi, shaxs integrativ xususiyati, ma`naviy bilimdonlik va ma`naviy qadriyatlar tizimida o`z o`rnini aniqlash imkonini beradi. Shunda kelib chiqqan holda, hayotiy vaziyatlarning keng doirasida ma`naviy yetukligini namoyon qilish qobiliyati batafsil bayon etilgan.

Tadqiqotning ob'yekti. Bo`lajak pedagoglarda tayanch ma`naviy kompetensiyani rivojlantirishda sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanish.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Mazkur tadqiqotda pedagogikaning ilmiy va o`quv-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish, pedagogik kuzatish va suhbat metodlaridan foydalanildi.

Abu Abdulloh Xorazmiy «Al jabr va al-muqobala», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Yer sathini o'lchash», «Quyosh soatlari to'g'risida», «Yahudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash» kabi asarlari orqali bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, induktsiya, deduktsiya, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi. U birinchi marta insonlar o'rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Hindlarning o'nlik raqamlari Xorazmiy tufayli «Arab raqamlari» nomi bilan

[1] Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016, 19-oktyabr.

butun dunyoga yoyildi.Xorazmiy xindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi[1].

Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to`g`risida»[2], kabi asarlarida allomaning ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari ifoda topgan. Uning pedagogik qarashlarida quyidagilarni ko`rish mumkin. Biz bilamizki, Forobiy birinchi bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan. U insonda go`zal fazilatlar ikki yo`l – ta'lim va tarbiya yo`li bilan hosil qilinadi. Ta`lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug`ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarni birlashtiradi, ta`lim so`z va o`rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo`ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko`nikmalarni qay darajada o`rganganligiga qarab paydo bo`ladi, deb ko`rsatadi. Ta'lim-tarbiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: qanoatbaxsh, ilhomlantiruvchi so'zlar va majbur etish. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so'zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, xiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin. Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmay va ulardan jirkanadi. Bunday narsalar unga noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi deb o`z asarlarida har bir shaxsda ma`naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirish har bir davr uchun eng dolzarb masala ekanligini ta`kidlaydilar.

"Forobiy axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo`lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko`pchilik manfaatini yuqori qo`yish, haqiqat, ma`naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi. Ammo bu xislatlarning ehg muhimi har bir insonning bilimli, ma`rifatli bo`lishidir. Shuning uchun ham Forobiy axloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog`liq holda, tafakkurga asoslangan axloq sifatida qaraydi"[3].

Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan.

"Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan: 1 – sog' – salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi; 2 – tabiati nozik, farosatli; 3 – xotirasi mustahkam, 4 – zehni o'tkir, 5 – o'z fikrini tushuntira oladigan notiq, 6 – bilim-ma'rifatga havasli, 7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi, 8 – haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, 9 – o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi, 10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan, 11 – adolatparvar, 12 – qat'iyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi.

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'ladi. Bunda u, kishilarning diniy mashabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi. U o'zning "Baxt saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida "Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, – deb yozadi. U, – bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritadi". Forobiy davlatni yetuk shaxs boshqarishi lozim daydi; yani jamoani idora etuvchi adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi lozim deydi"[4].

[1] Al-Xorazmiy Muhammad ibn Muso. Tanlangan asarlar, "Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqa kitob". - Toshkent, 78 bet.

[2] K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005y. 81-bet.

[3] K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005y. 82-bet.

[4] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

Abu Rayhon Beruniyning «Mineralogiya», «Geodeziya», «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydana» asarlarida insonni tabiatning eng oliy kamoloti deb qaraydi. U insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muhim rol o'ynaydi: 1. Irsiyat. 2. Muhit. 3. Tarbiya. Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. U o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish va hokazoga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.

U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, muhitni alohida ta`kidlaydi. Beruniyning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo`lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o`zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

Abu Rayhon Beruniy ham axloqiy tarbiyaga quyidagicha ta`rif beradi. Axloqliylik yaxshilik bilan yomonlik o`rtasidagi kurash natijasida namoyon bo`ladi va tarkib topadi deydi, u. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq atvorini belgilaydigan mezon sifatida qo`llaniladi.

U yaxshi xislatlarga to`g`rilik, odillik, o`zini vazmin tutish, insof, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Yomon illatlarga esa hasadgo`ylik, baxillik, nosog`lim raqobat, o`z manfaatini ko`zlash,mansabparastlik va hokazolarni kiritadi.

Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma`nosida ishlatib, "Yodgorliklarda" "Faxrlanish- haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe`llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shu sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular etishmasa, hukm uning zarariga bo`ladi"[1].

Demak, Beruniy insonning ma`naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo`ladi. Bu insoniyat yaratgan pedagogik fikr taraqqiyotida "qizil ip" bo`lib o`tganidek, shu an`anaga muvofiq Beruniyda ham axloqiy tushunchalar axloqiy barkamollikning muhim tomonlaridir.

Beruniy saxovat (O`zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo`lish, halollik va haqgo`ylik, o`z mehnati bilan kun ko`rish v.b.)ni insonning axloqiy kamolotini ko`rsatuvchi xislatlar deb biladi.

Insonning axloqiy kamolga etishi muammosi butun ta`lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo`lib kelgan.

Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka etishga to`sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg`onchilik, munofiqlik, manmanlik takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo`yish va ta`magirlik, g`azab va johillik inson uchun eng ashaddiy deb qaraydi.

Zero, uning o`zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma`naviy meros qoldirdi.

Abu Ali ibn Sino «Tadbir al-Manozil», «Tib qonunlari» «Axloq haqida risola», «Burch haqida risola», «Al-qonun», «Ishq haqida risola», «Xay ibn-Yaqzon», «Donishnoma»[2] va boshqa asarlarida ma`naviy axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni yoshlikdan amalga oshirib borishni uqtirib o`tadilar. Ibn Sinoning fikricha insonlar xulq-atvorida birmuncha nuqsonlar bor. Bular: aldash, rashk, o'ch olish, adovat, bo'hton, irodasizlik kabilardir. U bilim olishda bolalarni jamoa bo'lib maktabda o'qitish zarurligini ko'rsatadi va ta'limda quyidagilarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

1) bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib ko'ymaslik;

2) ta'limda yengildan qiyinga ori shorkali bilim berish;

3) olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

4) o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga e'tibor berish;

[1] Abu Rayxon Beruniy.Tanl. asarlar. 1 t. - Toshkent, 1968, 151-bet.

[2] K.Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov "Pedagogika tarixi" O`quv qo`llanma - Toshkent. "O`qituvchi" 1996, 89 b.

5) bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

6) o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ibn Sino yuksak axloqiy sifatlarni shakllanishida ilmli do`st ham munim rol uynaydi deb biladi. Olim do`stlikni shunday ta`riflaydi:

- har qanday qiyinchiliklarga qaramay o`z do`stini xavf-xatarda yolg`iz qoldirmaydigan do`stlik;
- manfaatlari o`xshash va g`oyaviy yaqin do`stlik;
- o`z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do`stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do`stlikni haqiqiy do`stlik deb e`tirof etadi[1].

Mutafakkirlarning buyuk xizmatlaridan biri shundaki ular insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug`laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ`ib qiladi.

Yuqorida mutafakkirlarning pedagogik asarlarini o`rganish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki inson kamolotida ta`lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalangan, ilm-fan sohasida tarbiyani targ`ib qiluvchi fanlari orqali ham tadqiq etish, o`rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Taklif va xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchimiz:

– barcha ta`lim muassasalarida o`quvchi-yoshlar va talabalarning yoshiga mos ravishda ma`naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga va o`z-ozini anglashga yordam beradigan mutafakkirlarimizning asarlarini darslik, o`quv qo`llanmalarda mujassamlashtirish uchun pedagogik-psixologik dasturlarni yaratish;

– oliy ta`lim muassasalarida ma`naviy-axloqiy tarbiyani bugungi kun talablariga ko`tarish, talaba-yoshlar dunyoqarashiga ta`sir qiluvchi mutafakkirlarimizning asarlarini o`qib o`rganish va uni tahlil qilishga imkoniyat yaratuvchi turli madaniy, ma`rifiy, siyosiy, ijtimoiy tadbirlarni ko`proq tashkil etish.

– bo`lajak pedagoglarda ma`naviy-axloqiy bilimlarni chuqurlashtirish va o`z mutaxassisligini mukammal egallashga xizmat qiladigan tarixiy manbalardan muntazam foydalanish;

– talaba-yoshlar bilan turli sohaning etakchi, namunali, ya`ni zamonamiz qahramonlari bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar o`tkazish, davra suhbatlarini o'tkazishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish;

– talabalarda ma`naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va ularda milliy o`z-o`zini anglashni shakllantirishda muborak qadamjolarni ziyorat qilish, tarixiy maskanlarga sayohat uyushtirish, xalq og`zaki ijodi hamda ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma`naviy va madaniy meroslari bilan yaqindan tanishtirib borish g`oyat muhim.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018y., 07/18/3775/1313.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son.

3. O`zbekiston Respublikasning "Ta`lim to`g`risida"gi Qonuni (O`RQ-637-son, 2020 yil 23-sentabr) Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-

[1] Irisov A. Abu Ali ibn Sino. Hayoti va ijodiy merosi. - Toshkent, "Fan", 1980, 175 b.

son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079 – son.

5. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016, 19-oktyabr.

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent, Abdulla qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

7. Abu Rayxon Beruniy.Tanl. asarlar. 1 t. - Toshkent, 1968, 151-bet.

8. Al-Xorazmiy Muhammad ibn Muso. Tanlangan asarlar, "Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqa kitob". - Toshkent, 78 bet.

9. Irisov A. Abu Ali ibn Sino. Hayoti va ijodiy merosi. - Toshkent, "Fan", 1980, 175 b.

10. K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005y. 81-bet.

11. K. Hashimov, S.Nishonova "Pedagogika tarixi" Toshkent-2005y. 82-bet.

12. K.Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov "Pedagogika tarixi" O`quv qo`llanma - Toshkent. "O`qituvchi" 1996, 89 b.